

**BERUNIY VA IBN SINO ILMIY-FALSAFIY QARASHLARIDA OILA SIYOSATINING
KONSEPTUAL INTEGRATSIYASI****G'anieva Ch.G'.***TDTTrU tayanch doktoranti*

Abu Rayhon Beruniy O'rta asr Sharqidagi eng buyuk allomalardan biri, tabiatshunos, astronom, matematik, geograf, tarixchi, faylasuf, etnograf va tilshunos sifatida mashhur. U yoshligidan Xorazmshohlar saroyida ilmlar bilan shug'ullangan. G'azna sultonlari saroyida ham yashab, ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Hindistonga safar qilib, u yerdagi madaniyat, din va fanlarni chuqur o'rgangan. Xorazmlik buyuk olimning ma'lum bo'lgan asarlarini astoydil o'rganishga kirishilgandan boshlab, to shu kungacha o'tgan yuz yillarcha vaqt mobaynida tadqiqotchilar Beruniy ilmiy qiziqishlar doirasining kengligi va chuqurligiga, tanqidiy tahlilining jiddiyligiga va o'tkirligiga, uning o'sha davrda erishgan yutuqlariga qoyil qolishadi. Dunyo fan olamining eng buyuk arboblari orasida Beruniyga teng keladigan olimni topishga urunib, uni ikkinchi Eratosfen, Ptolomey, Leonardo da Vinchi deb ataganlar. Uyg'onish davrining ulug' rassomi Leonardo da Vinchi va buyuk olim va ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniy taqqoslamochi bo'linsa, S.P.Tolstov odilona ko'rsatib o'tganidek, "Beruniy ikkinchi da Vinchi emas aksincha Leonardo da Vinchini ikkinchi Beruniy deyish mantiqqa ko'proq to'g'ri keladi".[1,3] Bundan tashqari yana ko'plab olimlar va akademiklar ham buyuk zotni ulug'lab qiyosiy tahlillar qilishgan. Akademik B.M.Kedrovni "Beruniy-sharq yulduzi bo'lsa, Kopernik-g'arb yulduzidir", deya ta'kidlagani ham bejiz emas albatta. "Mening istaklarim, butun vujudim ilm tarqatishga qaratilgandir va men buni o'zim uchun eng ulug' baxt deb bilaman" degan ekan buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy.

Bundan tashqari buyuk mutafakkirlarga katta ehtirom ko'rsatgan Mirzo Ulug'bek shunday deydi: "Podsholiklar yemiriladi, din tumandek tarqalib ketadi, ammo olimlarning ishlari mangu qoladi".[2,3] Tom ma'nosi bilan ensiklopedist olim bo'lgan Beruniy insoniyat bilimlari xazinasiga juda qimmatli va har taraflama hissa qo'shdi. "Osori boqiya" ("O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar") va "Hindiston" asarlarining avtori o'zini ko'proq astronom deb hisoblagan bo'lsada, uning ilmiy qiziqishlari doirasi faqat shu fan bilangina cheklanib qolmagan. Yulduzlar haqidagi fanga o'zining eng mashhur asarlaridan biri "Al Qonun al Mas'udiy"ni bag'ishlagan Beruniy faqat osmon sirlari bilangina shug'ullanmasdan, yer o'zida bekitgan boyliklarni o'rganish bilan ham qiziqqan; astronomiyadan tashqari, mineralogiya, geografiya, geometriya fanlari ham olimning diqqatini o'ziga jalb etgan. U etnografiya, texnik xronologiya hamda tabiiy va amaliy fanlarning boshqa juda ko'p sohaslariga katta e'tibor berib qaragan, shu bilan birga, Beruniy o'z vatanining o'tmishi, turli xalqlarning din, madaniyat va tillarini qunt bilan o'rgangan. Nafis adabiyot va poeziya ham Beruniy uchun yot bir narsa bo'lgan emas, hatto uning o'zi ham ba'zan she'rlar yozgan.

O'z asarlarida diniy-falsafiy masalalar to'g'risida fikr yuritir ekan, olimimiz, uning dastlabki biograflaridan biri qayd qilib o'tganidek, "mavhum, behuda muhokamalarga sho'ng'ib ketishga moyil bo'lmagan", falsafa tushunchasining o'zini ham u dastlabki ma'nosida, ya'ni "bilimga bo'lgan ishtiyoq", "yangi-yangi bilimlarni egallashga intilish" ma'nosida sharhlashni afzal ko'rgan. U 27-28 yoshlaridayoq yozgan birinchi yirik asari "Osori boqiya"da: "Biz bunday mavzularda tortishuvlardan (ya'ni so'zlar haqida bahslashuvdan) bosh tortamiz hamda o'z muxoliflarimiz bilan, agar ular g'oyalar to'g'risida bizga qo'shiladigan bo'lsalar, so'zlar borasida kelisha beramiz", -deb yozadi. Beruniy faqat bir marta, bundan ilgariroq, o'zidan bir necha yosh kichik bo'lgan zamondoshi, keyinchalik zabardast olim sifatida dong taratgan Ibn Sino bilan yozishmalaridagina, falsafiy-kosmogonik mavzuda bahslashgan edi, ammo bundan keyin u bu xil munozaralarda biror marta ham qatnashgan emas. Beruniy mavhum bilimdonlikdan qochib, moddiy madaniyat sohasida ham, ma'naviy madaniyat sohasida ham insoniyatning real hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalarga qiziqdi. Shaxsan o'zi sinchiklab kuzatgan hamda "g'azablanmasdan", "beg'araz" baho bergan obektiv faktlarnigina olim ahamiyatli deb hisoblar edi. Ulug' olim va mutafakkir o'z ijodiy faoliyatining barq urib gullagan davrida Abu Rayhon Beruniy

“Haqiqat ehtirosiga bo‘ysunmaydi”, “Men, qanday manbadan bo‘lishidan qat’i nazar, baribir haqiqatga qo‘shilaman”, degan edi.[3,4,5]

Abu Rayhon Beruniy ta‘lim-tarbiya tog‘risida fikrlarini hikmatli so‘zlari orqali ifoda etgan. Hakim va olimlar axloqdan ta‘lim olish yaxshi xulqqa hayot baxsh etadi, yomon xulqni o‘ldiradi. Albatta ta‘biri joiz bo‘lsa shuni aytib o‘tishimiz mumkinki har bir davrda, har qanday jamiyatda ta‘lim-tarbiya, ilm yuksak baholangan. Odamlar o‘rgangan, odatlangan va bilgan narsasiga qarshilik ko‘rsatma. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki mutafakkir qarashlarida jamiyat va insonlar uzviy aloqadorli va mutanosibligini saqlash uchun insonlarni dunyoqarashini shakllantirish zarur. Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldanchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. Bugunning chorasini ko‘rib ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.[4,11]

Ko‘rinib turibdiki allomaning qarshilarida ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, dunyoqarash, tashqi olamga, jamiyatga bo‘lgan munosabati, his-tuyg‘ular insonni hayotda o‘z o‘rnini topishda muhim rol o‘ynashini bilib olishimiz mumkin. Beruniyning ijtimoiy qarashlari hanuzgacha na bizning, na xorijiy adabiyotda maxsus tekshirilmagan. Vaholonki, ular o‘zining originalligi va o‘tkir fikrligi bilan katta qiziqish uyg‘otadi. Uning jamiyatga bo‘lgan qarashlari yana shuning uchun ham tekshirilishi kerakki, ayrim burjua olimlari uni obektivistik yoki konservativ qarashlar deb atashgan.

Insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma Abu Ali ibn Sino axloqiy qarashlarida inson kamoloti va oilaviy munosabatlar uning “Axloq”, “Axloq fani”. “Oila qurilishi” va boshqa asarlarida katta o‘rin egalladi. “Nimaiki, mavjud bo‘lsa, deb yozadi Ibn Sino, - o‘z tabiatiga ko‘ra kamolotga intiladi. Mana shu intilish, o‘z mohiyatiga ko‘ra yaxshilikdir. Narsa kamolotga intilib, nuqsonlardan qochadi... Yaxshilik faollikka, yomonlik esa turg‘unlikka olib keladi”. Alloma axloqiy qarashlarining muhim tomoni farzandlarda ahloqiy madaniyatni shakllantirish masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Bu esa bolada olijanob ahloqiy fazilatlarini ular shuuriga singdirishdan iborat. Ahloqiy tarbiya masalalarida oilaning o‘rni, oila va oilaviy munosabatlar Ibn Sinoning “Tadbiri manzil” asarida alohida o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. Ibn Sino mazkur asarida oilada bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlar masalasiga to‘xtalib, siga o‘ziga xos tarzda yondashsa, har bir oila bola tarbiyasining uchun ota-ona o‘zlari namuna ko‘rsatsalar, bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish mumkin degan g‘oyani ilgari suradi.

Ibn Sinoning fikricha, oilada bosh tarbiyachi ota bo‘lib, u yumshoq ko‘ngil bo‘lmasligi zarur. Uning talabchanligi, qattiq qulligi o‘z o‘rniga qilinadigan mehribonlik bilan birga borishi lozim. U asarida ayollarning yaxshi sifatleri haqida to‘xtalib, onalarning donoligi, sabr-toqatliligi, halol va kamtarligi kabi ahloqiy sifatleri bola tarbiyasida muhim o‘rin tutishligini ta‘kidlab o‘tadi. Ana shu jihatlari bilan ona oilada otaning yordamchisi vazifasini bajaradi.

Ibn Sino o‘zining mashhur “Tib qonunlari” nomli muxtasar asarida, chaqaloqning ona qornida rivojlanishi va tug‘ilgandan keyingi davrlarda shaxs sifatida shakllanishi ona ruhiyatiga bog‘liq, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Shuning uchun, emizikli ayolning g‘azablanishi, qo‘rqishi va kuchli asabiylashmasligi zarurki, bu ruhiy holatlar bola xarakterini tarkib topishiga olib keladi. Shuning uchun, u onada homila shakllangandan boshlab hayajonlanmasligi xotirjam hayot kechirishi uchun imkoniyat yaratilishi kerak, deydi. Onaning yomon xulq-atvori, turli salbiy xususiyatlari, umuman, unda odob madaniyatini yetishmasligi bolaning nosog‘lom tug‘ilishiga, jismoniy nuqsonli bo‘lib o‘sishiga, hatto tug‘ma nasliy kasalliklarni keltirib chiqaradi, deydi[5,75]. Uning bu fikrlarini hozirgi zamon genetika fani ham tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham xalq pedagogikasida bola tarbiyasini tug‘ilgandan keyin emas, balki oldin boshlash lozimligi qayd etiladi. Zotan, ota-ona bo‘lishni istagan har bir inson, eng avvalo, o‘zlarining xulq-atvoriga, yurish-turishiga, iymon-e‘tiqodiga, umuman, odob madaniyatiga e‘tibor berishlari shart. Chunki bu madaniyat irsiyat orqali bolalarga o‘tadi. Bunga avlodlarning ichida talantli san‘atkorlar bo‘lsa, farzandlarning birortasini shunday qobiliyatga ega bo‘lishligini misol qilib keltirish mumkin.

Bu o‘rinda Ibn Sino ona “Alla”sining madaniy-ma‘rifiy ahamiyati haqida aytgan fikrlariga alohida to‘xtalib o‘tmoq maqsadga muvofiq. “Alla” uning fikricha, ikki vazifani bajaradi: biri — uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom baxsh etadi, ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratish bilan ona mehri jo‘sh uradi, uning bolasiga bo‘lgan muhabbatdan, uning orzu-umidi yuragidan silqib chiqadi. Onaning bu ham mungli, ham jo‘shqin qalbiga, shuuriga o‘rnashib, bolada hali o‘zi

anglab yetmagan mo'jizaviy holat paydo bo'ladi, u asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi, onasining orzu-umidini tushuna boshlaydi. Xuddi shu daqiqalardan bola tarbiyalana boshlaydi, bola hali gapira olmasa ham o'rgana boshlaydi. Ibn Sino yuqoridagi fikri bilan shunga ishora qiladi.

Oilada er-xotinlar munosabati masalasida Ibn Sino "Oila xo'jaligi" kitobida bunday yozadi: erkak oila boshlig'i, ayol erkakning yaxshi va munosib yo'ldoshi, u bola tarbiyasida yaxshi voris va yordamchidir, u aqlan dono, iffatli, halol, pok, to'g'ri so'z. kamtar bo'lishi, iffati va obro'sini to'kmasligi lozim, u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi bajarishi, shuningdek, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i va o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi, umuman, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va bir-birini tushunishga asoslanmog'i lozimdir.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining bilish nazariyasida tuyg'ular manba sifatida bilishning dastlabki momenti markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Biroq ular bilish jarayonini faqat hissiy kuzatishlar bilan cheklab qo'ymaganlar. Aksincha, bu mutafakkirlar o'z davrining ratsionalizatorlari sifatida inson ongining o'rni va ahamiyatini yuksak baholaganlar haqiqatga intilish. Ibn Sino inson ongini haqiqat mezoni sifatida belgilab, "tarozida (aql) tortilmagan har qanday bilim ishonchli emas va shuning uchun ham haqiqiy bilim emas" deb qayd etadi.[6,89]

Olimlar va mutafakkirlarning mana shu turkumida Abu Ali ibn Sino alohida o'rin egallaydi. Zamondoshlari uni hurmat bilan shayx ur-ra'is, ya'ni ustoz, alloma deyishardi, chunki u turli-tuman fanlar sohgasida fikr yuritir, asarlar ijod qildi.[7,4]

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sino buyuk olim, faylasuf, adib, tabib bo'lish bilan birga, buyuk ma'rifatparvar, buyuk murabbiy edi. Alloma ta'lim-tarbiya haqida juda ko'p bosh qotirdi, mulohaza yuritdi. Ularga bag'ishlangan maxsus asarlarining bir qismi -"Yaxshilik va yomonlik" davrimizgacha yetib kelmagan bo'lsa ham, lekin uning qarashlari asarlarida sochilgan holda saqlanib qolgan. Bu asarlar ichida uning ta'lim-tarbiyaga oid durdonalarini bir joyga to'plash galdagi vazifalardan biridir. Zero, allomaning bu to'g'ridagi fikr-mulohazalari ming yil muqaddam bitilib, mavzu taqozo qilgan munosabatga ko'ra bayon etilgan ekan, "Oltin zanglamas" deganlaridek, bobomizning bu to'g'rida bitganlari eskirmagan, hamon jamiyatimiz farzandlarini to'g'ri yo'lga solishga, ularni sog'lom, bardam qilishga, olijanoblik bayrog'ini baland ko'tarib borishiga xizmat qiladi.[24] Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya borasidagi dunyoqarashi va ilg'or g'oyalari faqat uning tabiiy fanlarga oid bo'lgan asarlaridagina emas, balki uning adabiy janrda yozgan she'r va qissalarida ham o'z aksini topgan. Uning adabiy asarlarida insonparvarlik, rostgo'ylik, mehr-muhabbat, bir-birovini hurmat qilish, do'stlik kabi qator masalalar o'rta tashlanadi

Zero, allomaning bu to'g'ridagi fikr-mulohazalari ming yil muqaddam bitilib, mavzu taqozo qilgan munosabatga ko'ra bayon etilgan ekan, "Oltin zanglamas" deganlaridek, bobomizning bu to'g'rida bitganlari eskirmagan, hamon jamiyatimiz farzandlarini to'g'ri yo'lga solishga, ularni sog'lom, bardam qilishga, olijanoblik bayrog'ini baland ko'tarib borishiga xizmat qiladi

ADABIYOTLAR:

1. Салье М.А. Илм фан классиклари. Абу Райхон Беруний. Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. Тошкент -1960.Б.3
2. Умаров Э.Ф. Абу Райхон Беруний, Николай Коперник ва ҳозирги замон фани. Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти. Тошкент-1973. Б-3.
3. Ирисов.А. Фаробий адиб. Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти. Тошкент 1975 йил.
4. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
5. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.
6. Ramatov, J., & Umarova, R. (2020). Theoretical and ideological sources of beruni's philosophical views. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1974-1980.

7. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Khasanov, M., Sultonov, S., & Kushakov, F. (2022). PROBLEMS OF INFLUENCE OF ISLAM ON CONSCIOUSNESS TRANSFORMATION. Academic research in educational sciences, 3(10), 591-597.
8. Умарова, Р. Ш. (2020). Роль натурфилософии Абу Райхана Бируни в развитии современной науки. Экономика и социум, (3), 685-688
9. Жонматова Ҳ. Абу Али Ибн Сино таълим-тарбия тўғрисида. Тошкент “Ўқитувчи” – 1980. Б-24.

REZYUME:

Mazkur maqolada bayon etilgan mulohazalar, tahlil va xulosalar shuni ko'rsatadiki, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sino Sharq Uyg'onish davrining yirik allomalari sifatida nafaqat ilm-fan, balki jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lmish oila masalasiga ham chuqur qarash bilan yondashganlar.

Kalit so'zlar: Beruniy, Ibn Sino, oila, ota-ona, farzand, tarbiya, rivojlanish, axloq, qadriyat, falsafa, mutafakkir, ijtimoiy, siyosiy.

РЕЗЮМЕ:

Представленные в статье рассуждения, анализ и выводы показывают, что Абу Райхан Беруни и Абу Али ибн Сина, будучи крупнейшими учёными эпохи Восточного Возрождения, глубоко подошли к вопросу семьи, которая является не только наукой, но и основополагающим звеном общества.

Ключевые слова: Беруни, Ибн Сина, семья, родители, ребенок, воспитание, развитие, мораль, ценности, философия, мыслитель, социальный, политический

RESUME:

The considerations, analysis and conclusions presented in this article show that Abu Rayhan Beruni and Abu Ali Ibn Sina, as major scholars of the Eastern Renaissance, approached the issue of the family, which is not only a science, but also a fundamental link in society, with a deep look.

Keywords: Biruni, Ibn Sina, family, parents, child, upbringing, development, morality, values, philosophy, thinker, social, political.